Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari.....	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production.....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy budjetlar daromadlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1295
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1298
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	
Внедрение цифровой трансформации высших учебных заведений.....	1302



Кучаров Абдор Сабиражонович, Абдурахмонов Абдумалик Абдурашидович, Набиева Нилуфар Наби қизи	
Mamlakatimizda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimning rivojlanish tendensiyasi	1310
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari.....	1319
Davronov Saxobiddin Faxriddinovich	
O'zbekistonda suv zaxiralaridan foydalanishning retrospektiv tahlili	1324
Axmedov Sayfullo Normatovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojlanishida to'lov tizimlarining o'rni	1334
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li, Rizayev Anvar Baxtiyorovich	
Fostering Entrepreneurship and Enhancing Women's Employment: The Uzbekistan Perspective	1338
Kholiyova Shokhista	
Zamonaviy soliq tizimlarining amal qilish xususiyatlari	1341
Taniyev Ahmadjon Bahromovich	
Mamlakatimizda tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy asoslari	1347
Masharipov Maxmud Bekturdiyevich	
Mamlakat iqtisodiyotining samarali rivojlanishida hayot sug'urtasining o'rni	1352
O. Jono'zoqov	
Sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga erishish	1358
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
Southeast Asia's Green Economy and Environmental Taxation	1364
Fayzieva Nargiza Rabimovna	
Tijorat banklari biznesini boshqarishning asosiy yo'nalishlari va tahlili.....	1371
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich	
O'zbekiston Respublikasida islom banklarini tashkil etishda xorij tajribasining o'rni	1375
Yo'ldosheva Iroda Ibodulla qizi	
Baliqchilik tarmog'ida samaradorlikni baholash masalalari	1380
Fayziyev Oybek Raximovich, Aitimbetov Amirbek Koishibekovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy-iqtisodiy asoslari va davlat siyosati .	1389
Xalikov Suyun Ravshanovich	
O'zbekiston Respublikasi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ilmiy yondashuvlar	1394
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich	
O'zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik loyihalarida islomiy moliyalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish.....	1401
Zayniddinov Ruhiddin Xusniddin o'g'li	
Korxonalar faoliyatini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar asosida reytingni aniqlash	1411
Maxkamboyev Komil Abdulxakovich	
Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda klaster-kooperatsiya tizimi samaradorligini oshirish masalalar	1416
Xo'jaqulova Nigora Rustamovna	
Kimyo tolalari asosida to'qimachilik sanoatini diversifikatsiyalash.....	1424
Raximov Furqat Jalolovich	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari	1431
Alimbayeva Sevara Alimbayevna	
O'zbekistonda islom banklarini tashkil etish zaruriyati va rivojlantirish imkoniyatlari	1437
Yo'ldosheva Iroda Ibodulla qizi	
Yalpi sug'urta mukofoti hajmiga ta'sir etuvchi omillar asosida sug'urta bozorini ekonometrik tahlili.....	1441
Mirzayev Bobur Soyibjonovich	
Biznesni tugatishning yakuniy bosqichi: tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirish	1448
Davletov Ikram Raximberganovich	
Обеспечение безопасности продуктов питания в меняющемся мире	1452
Нуриллаев Рахмат Ярашевич	
Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda klasterlash imkoniyatlaridan foydalanish	1458
Mavlanov G'olib	
Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish yo'liga o'tkazish sharoitida "yashil" sanoat siyosatini amalga oshirish xususiyatlari	1464
Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich, Umarov Oqil Omiljonovich	
Метод проектов как одно из условия успешного формирования антикоррупционной компетенции студентов высшей школы.....	1470
Мохов Дмитрий Анатольевич	
Mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solishning xalqaro huquqiy asoslari va institutlari	1476



Askarov Zoxidjon Sadikjanovich	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va ta'minlash yo'llari	1481
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
Marketing Mix, Retail Trade, Material Environment in Marketing.....	1485
Egamberdiyev Muzaffar	
Davlat tomonidan aholi bandligini tartibga solish ilmiy konsepsiyalarining evolyutsiyasi	1489
Ismoilov Azizbek	
Significance of Investment Activity in Tourism and its Development.....	1493
Utkirjan Akhmedov	
Корпоративные структуры и их влияние на развитие учета и отчетности	1498
Хайдарова Дилдора Жахонгир кизи	
Происхождение и роль социального сельского хозяйства в современной экономике.....	1506
Эгамбердиев Хумоюн Хамрокулович	
Анализ конкурентной среды: примеры, методы и этапы	1512
Садикова Раъно Абдуллаевна	
Milliy iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalarning tahlili	1518
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
Исследование методов бетонной смеси.....	1524
Шарипова Мадина Конгратбаевна	
Oilaviy biznesni boshqaruv tuzilmasi	1532
Toshpo'latov Murodulla Sobirjon o'g'li	
Strategies for Advancing Green Construction:	
The Influence of Business Investment in Research and Development.....	1537
Gulsarakhon Muhammadyoqub kizi Ostonaqulova	
Kichik tadbirkorlik faoliyatini samarali yuritishning asosiy shart va tamoyillari	1545
Vaxabov Asadullo Ubaydullo o'g'li	
Оптимизация корпоративного управления через сбалансированное финансовое стратегирование.....	1549
Ахмедов Дилшод Турсункулович	
Milliy iqtisodiyotning o'sishida agroklastarlarni shakllantirish va samaradorligini oshirish hamda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish.....	1553
Dusmatov Begmuhammad Olimjonovich	



MILLIY IQTISODIYOTNING O'SISHIDA AGROKLASTERLARNI SHAKLLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH HAMDA INNOVATSION INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH



Dusmatov Begmuhammad Olimjonovich

PhD, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, "Real iqtisodiyot" kafedrası dots.nti v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Agrosanoat klasteri geografik mahalliyashtirilgan o'zaro bog'liq xo'jalik yuritish subyektlari, kompaniyalar, asbob-uskunalar va butlovchi qismlar ta'minotchilari, ixtisoslashgan xizmatlar, infratuzilma, ilmiy tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari hamda bir-birini to'ldirib turadigan, alohida kompaniyalar va butun klasterning raqobatli ustunliklarini kuchaytiradigan bo'lib hisoblanadi. Shu bois mamlakat agrosanoat ishlab chiqarishini uzviy ilmiy bog'lash masalalari ko'tarilgan.

Kalit so'zlar: Agrosanoat majmuasi, agrosanoat klasteri, klaster, raqobatbardoshlik, innovatsiya, innovatsion faoliyat, modernizatsiya, innovatsion infratuzilma.

Abstract: In this article, an agro-industrial cluster is a geographically localized network of interconnected business entities, companies, suppliers of equipment and components, specialized services, infrastructure, research institutes, higher education institutions and complementary ones that enhance the competitive advantages of individual companies. and the cluster as a whole. Therefore, questions of organic scientific combination of the country's agro-industrial production have been raised.

Key words: Agro-industrial complex, agro-industrial cluster, cluster, competitiveness, innovation, innovative activity, modernization, innovation infrastructure.

Аннотация: В данной статье Агропромышленный кластер представляет собой географически локализованную сеть взаимосвязанных хозяйствующих субъектов, компаний, поставщиков оборудования и комплектующих, специализированных услуг, инфраструктуры, научно-исследовательских институтов, высших учебных заведений и дополняющих друг друга, усиливающих конкурентные преимущества отдельных компаний. и кластер в целом. Поэтому подняты вопросы органического научного соединения агропромышленного производства страны.

Ключевые слова: Агропромышленный комплекс, агропромышленный кластер, кластер, конкурентоспособность, инновации, инновационная деятельность, модернизация, инновационная инфраструктура.

KIRISH

Mamlakat agrosanoat ishlab chiqarishini klasterlashtirish (cluster) muammosi milliy iqtisodiyotning barcha sektorlarining texnologik modernizatsiyasi tufayli alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunda, mamlakat agrosanoat majmuining barcha mulk shaklidagi korxonalari (fermer va dehqon xo'jaliklari, xizmat ko'rsatish, qayta ishlovchi korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari va h.k)ni innovatsion rivojlantirish imkoniyatini oshiruvchi zarur institutsional muhitni yaratishga asosiy e'tiborini qaratadi. Shuning uchun, agrosanoat majmui korxonalarining raqobat faolligini oshirish, ishlab chiqarish omillari uyg'unligining yangi shakllarini izlash, yangi mahsulotlarni yaratish va bozorlarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Agrosanoat klasteri geografik mahalliyashtirilgan o'zaro bog'liq xo'jalik yuritish subyektlari, kompaniyalar, asbob-uskunalar va butlovchi qismlar ta'minotchilari, ixtisoslashgan xizmatlar, infratuzilma, ilmiy tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari hamda bir-birini to'ldirib turadigan, alohida kompaniyalar va butun klasterning raqobatli ustunliklarini kuchaytiradigan boshqa tashkilotlar guruhini ifodalaydi.



Agrosanoat klasterini boshqalardan ajratib turadigan yana bir muhim belgi xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish-kooperatsiya va boshqa o'zaro aloqalari modellarining umumiyliigi, chunonchi, yetakchi (integratsiya qiluvchi) mahsulot (paxta, uzumchilik, sabzavot, chorva mahsu-lotlari va b.) yaqqol ifodalangan omili hisoblanadi.

Agrosanoat klaster qatnashchilarining innovatsion yo'naltirilganlik omili klasterni ajratib turadigan muhim jihat hisoblanadi. Klasterlar, qoidaga ko'ra, ishlab chiqarish texnologiyalari va texnika sohasida ilg'or o'sish va kelgusida yangi "bozor o'rinlari"ga chiqish kutilayotgan yoki amalga oshirilayotgan joylarda shakllantiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

M.Porter mamlakat raqobatbardoshligini alohida firmalarning emas, balki turli tarmoqlarga oid firmalar bir-lashmasi – klasterlarning xalqaro raqobatbardoshligi orqali ko'rish maqsadga muvofiq, xususan, mana shu klasterlarning ichki resurslardan samarali tarzda foydalana olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaydi ^[1].

Raqobatbardoshlikni qaror toptirish bo'yicha iqtisodiy jarayonlarni o'rganishga klasterli yondashuv boshqa qator nazariyalarda ham qo'llaniladi:

- Ye.Lyumer milliy darajadagi savdoni tahlil qilish davomida eksport darajasi yuqori bo'lgan klasterlarni o'rgangan; ^[2]
- I.Tolenado va D.Sole texnologik sohalarning guruhlariga ta'rif berishda "filerlar" tushunchasidan foyda-langanlar; ^[3]
- Ye. Daxmenning klaster nazariyasi "taraqqiyot bloklari to'g'risida"gi tezisiga asoslanadi; ^[4]
- V.Feldman tomonidan ishlab chiqilgan nazariyaning afzal tomoni shundaki, u turli mamlakatlardagi diversifikatsiyalangan shakldagi korxo-nalarni keng ko'lamda empirik tadqiq qilishga asoslanadi.^[5]

M. Enrayt tomonidan 160 mintaqaviy klaster o'rtasida olib borilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, klas-terlarning taxminan 60%i jahon yoki mahalliy yetakchilar qatoridan o'rin olgani va faqat 20 % i zaif raqobatbar-doshlikka ega ekani ma'lum bo'ldi ^[6].

B. O. Dusmatov tomonidan Agroklasterlarni boshqalardan ajratib turadigan yana bir muhim belgi xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish-kooperatsiya va boshqa o'zaro aloqalari modellarining umumiyliigi, chunonchi, yetakchi (integratsiya qiluvchi) mahsulot (misol uchun paxta-to'qimachilik klasteri) yaqqol ifoda-langan omili hisoblangan ^[7].

B. O. Dusmatov tomonidan Qishloq xo'jaligida kooperatsion-xo'jalik munosabatlarining odatdagi shakl-laridan farqli ravishda, agroklaster tizimlarida innovatsion xizmatlar infratuzilmasi quyidagi xususiyatlari orqali tavsiflangan ^[8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Milliy iqtisodiyotni iqtisodiy o'sishida agroklasterlarni shakllantirish va uning samaradorligini innovatsion infratuzilmani rivojlanishi mavzusidagi maqolada ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon amaliyotiga muvofiq, ASMda quyidagilar klasterlarning asosiy belgilari hisoblanadi:

- klaster qatnashchilari o'rtasida tizimli rivojlanadigan aloqalar, raqobat va kooperatsiya (jumladan, davlat-sheriklik munosabatlari, qo'shma loyihalar) mavjudligi;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar – klaster qatnashchilarining iqtisodiy aloqalari barqarorligi, bu aloqalarning klaster qatnashchilari aksariyati uchun ustunlik qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi (dehqon va fermer xo'jaliklari, qayta ishlash korxonalari, servis tuzilmalari va b.);
- klaster qatnashchilarining innovatsion faolligi yuqoriligi, raqobatli ustunliklarni doimiy takomillashtirishga yo'naltirilganlik (hududiy universitet va institutlar, ilmiy markazlar, innovatsion markazlar va b.);



- butun tizimning uzoq muddatli xo'jalik, innovatsion va boshqa strategiyalarini belgilab beradigan yetakchi – yirik tashkilot mavjudligi (paxta-tekstil klasteri uchun-tekstil sanoat korxonasi, meva-sabzavot klasteri uchun- qayta ishlash korxonasi va b.);
- ishlab chiqarish dasturlari, innovatsion faoliyat, asosiy boshqaruv tizimlari, sifat nazorati va boshqalar doirasida klaster qatnashchilarining o'zaro aloqalarini uzoq muddatli muvofiqlashtirish (sertifikatsiya laboratoriyalari, sifat inspeksiyalari, mahalliy boshqaruv organlari va b.).

Hozirgi paytda amalda O'zbekistonning barcha mintaqalarida hududiy-tarmoq agroklasterni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar mavjud, ular tarmoqlar miqyosida ham tashkil etilayapti. Andijon viloyati hokimligi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Innovatsion rivojlantirish vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, "O'zbekoziqovqatxolding" xolding kompaniyasining "Premium Agro Gold" va "Navigul" mas'uliyati cheklangan jamiyatlari hamda "Obod turmush orzusi" fermer xo'jaligi tomonidan meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va sotishga ixtisoslashtirilgan namunaviy meva-sabzavotchilik klasterlarini tashkil etildi

Bu agroklasterning faoliyati quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- meva-sabzavot yetishtirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish asosida ulardan hududiy sharoitlarda keng foydalanish hamda meva-sabzavotchilik sohasiga klaster tizimini joriy qilishda xorijiy mutaxassislarni jalb qilish;
- tashqi bozor talabiga to'liq javob beradigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, istiqbolda ularning seleksiyasi va urug'chiligini mamlakatimizda o'zlashtirish va rivojlantirish;
- "O'zstandart" agentligi 2019-2020-yillarda meva-sabzavotchilik klasterlarida xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish (ISO 22000, Global G.A.P) talablari bo'yicha sertifikatlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni ko'zda tutgan.

Davlat klaster siyosatining maqsadi rivojlanishning klasterli modelini joriy qilish vositasida agrosanoat majmuasi iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini oshirish uchun sharoitlar yaratish hisoblanadi. Ushbu maqsadga muvofiq davlat agroklasterni siyosatining quyi-dagi vazifalari belgilab berilishi lozim:


- agroklasterni shakllantirish va rivojlantirish uchun ustuvor yo'nalishlarni belgilash;
- agroklasterni rivojlantirish masalalari bo'yicha mutaxassislar va rahbarlar professional tayyorlash uchun sharoitlar yaratish;
- agroklasterni tashabbuslar va loyihalar ishlab chiqish va amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish.

Agrosanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning klasterli modelidan foydalanish istiqbollari bo'yicha axborot-tushuntirish ishlarini tashkil qilish. Buning uchun davlat organlari va biznes-hamjamiyat vakillari uchun iqtisodiyotni klasterli rivojlantirish masalalari bo'yicha xorijiy ekspertlar ishtirokida axborot-ta'lim tadbirlarini o'tkazish, jumladan, muayyan klasterli loyihalar tashabbusi bilan chiqish va ularni amalga oshirish borasida amaliy tajribalarni o'rganish talab qilinadi.

Hozirgi paytda agroklasterni ikki xil tashkiliy shaklda shakllantirishni ta'minlash maqsadga muvofiq:

- agroklasterni qatnashchilari o'rtasida uning doirasida qator yo'nalishlar bo'yicha (marketing tadqiqotlari o'tkazish, birgalikdagi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari va innovatsion loyihalar tashkil qilish va o'tkazish, axborot-ta'lim va reklama tadbirlarini amalga oshirish, jamoaviy foydalanish obyektlari qurilishi va ekspluatatsiyasini tashkil qilish va b.) klasterning barcha qatnashchilari manfaatlarida muvofiqlashtirilgan faoliyat amalga oshiriladigan oddiy hamkorlik shartnomasi (birgalikdagi faoliyat haqida shartnoma) tuzish. Bunda qatnashchilar rahbarlari tarkibidan klaster kengashi shakllan-tiriladi, lekin klasterli rivojlantirish markazi funksiyalarini bajaradigan maxsus apparat tashkil qilinmaydi;
- agroklasterni qatnashchilari tomonidan klaster kengashidan tashqari alohida yuridik shaxs tashkil qilish (mas'uliyati cheklangan jamiyat) yoki funksiyalarni klasterli rivojlantirish tashkiloti hisoblangan amaldagi tashkilotga o'tkazish. Klasterli rivojlantirish tashkiloti agroxolding jamiyati shaklida tashkil qilinishi mumkin.

Agroklasterni boshqalardan ajratib turadigan yana bir muhim belgi xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish-kooperatsiya va boshqa o'zaro aloqalari modellarining umumiyliigi, chunonchi, yetakchi (integratsiya qiluvchi) mahsulot (misol uchun paxta-to'qimachilik klasteri) yaqqol ifodalangan omili hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm: Paxta-to'qimachilik klasterining mahsulot turlari

Mahalliy boshqaruv organlari agroklaster tuzilmalari bilan hatto aniq klasterli yondashuv yo'qligida ham o'zaro aloqa qiladi. Klasterlashtirish mexanizmlaridan foydalanish yangi bilimlar va mahsulot yaratish kesimida davlat tomonidan moliyalashtirishni samarali tarkiblash va muvofiqlashtirishga imkon beradi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini amalga oshirish va muvofiqlashtirish masalalaridan tashqari hukumat organlari klasterli rivojlanish markazlari faoliyati qonuniyligini ta'minlagan va moliyaviy qo'llab-quvvatlagan holda klasterlarni rivojlantirish faol jarayoniga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligida kooperatsion-xo'jalik munosabatlarining odatdagi shakllaridan farqli ravishda, agroklaster tizimlarida innovatsion xizmatlar infratuzilmasi quyidagi xususiyatlari orqali tavsiflanadi (1-jadval).

1-jadval: Agroklasterlarda innovatsion infratuzilmani rivojlanishining o'ziga xos tomonlari¹

№	Mazmuni
1.	Butun tizimning uzoq muddatli xo'jalik, innovatsion va boshqa strategiyalarini belgilab beruvchi yetakchi korxonaning mavjud bo'lishi
2.	Klaster tizimidagi ishtirokchi xo'jalik subyektlari va innovatsion infratuzilmasi subyektlarini asosiy qismining hududiy mahalliylashuvi
3.	Innovatsion infratuzilma subyektlari va klaster tizimi ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarining barqarorligi, ishtirokchilarning katta qismi uchun bu aloqalar ahamiyatining ustuvorligi
4.	Innovatsion infratuzilma va klaster ishtirokchilarining ishlab chiqarish dasturlari, innovatsiya jarayonlari doirasidagi o'zaro hamkorlik munosabatlarining davomli muvofiqligi
5.	Boshqaruv, sifat nazorati va boshqa asosiy tizimlar

Shu bilan bir qatorda, barcha mamlakatlar ham klasterlarni rivojlantirish bo'yicha ijobiy tajribaga ega emaslar, masalan, 1994-yilda Portugaliyada 33 klaster ajratilgan bo'lsada, ularning barchasi ham samarali bo'lmadi, buni esa ajratib olingan klasterlar avval boshdanoq raqobatbardosh emasligi yoki bir-biri bilan

¹ Ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish asosida tuzilgan.



bog'lanmagan firmalarning oddiy to'plamidan iborat ekani orqali tushuntirish mumkin. Biroq shunga qaramay, ko'p holatlarda klasterlar alohida tarqoq korxonalarga nisbatan raqobatbardoshroq hisoblanadi. Agroklasterni yaratishda xomashyo olishdan boshlab, qayta ishlash va mahsulotni sotishgacha bo'lgan butun texnologik zanjirning yuzaga kelishi natijasidagi sinergetik samaraning shakllanishi, ayniqsa, katta ahamiyatga ega, bu esa o'z navbatida, tarmoqning innovatsion jozibadorligi ortishiga sabab bo'ladi. O'zbekiston iqtisodiyotida klaster siyosati amalga oshirilishi klaster ishtirokchilarining samarali hamkorlik qilishi, innovatsiyalarga, texnologiyalarga, nou-xau, ixtisoslashgan xizmatlar va yuqori malakali kadrlarga ega bo'lish va boshqa imkoniyatlar kengayishi hisobidan korxonalar raqobatbardoshligining o'sishiga yordam beradi.

Agroklasterlarning shakllanish bosqichlari davomiyligi ko'p tomonlama resurslarning mavjudligiga, asosiy ishtirokchilarning manfaatdorlik darajasiga, institutsional muhitning rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Yuqorida aytib o'tilganlardan kelib chiqib, kuchli agroklasterlarni ajratishning quyidagi algoritmi taklif etiladi:

- tovarlarning istiqbolli turlarini aniqlab olish, ya'ni mintaqadagi agrosanoat ishlab chiqarishi tomonidan ishlab chiqariladigan istiqbolli mahsulot turlari orasidan mahsulot eksportida ularning ulushini tahlil qilish asosida;
- agrosanoat ishlab chiqarishining raqobatbardosh mahsulotlarining jahon bo'yicha ishlab chiqariladigan hajmi va narxlarini dinamikasini o'rta va uzoq muddatli bashorat qilish;
- klaster yadrosini tashkil etishga qodir bo'lgan korxonalarning faoliyati samaradorligini aniqlab olish (istiqbolli mahsulotlarni ishlab chiqarish);
- klasterlarni rivojlantirish uchun zarur resurslarni belgilab olish. Tanlangan hudud doirasida joylashgan istiqbolli mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalarning xomashyo, moliyaviy resurslar, ishlab chiqarish kuchlari va boshqalar bilan ta'minlanganlik darajasi tahlil etiladi;
- infratuzilmaning agroklaster faoliyati uchun yetishmaydigan elementlarini yaratish uchun mavjud imkoniyatlarni tahlil qilish;
- klasterlarning muhim ishtirokchilarining o'zaro hamkorlik darajasini aniqlab olish, istiqbolli korxonalar rahbarlari o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish asosida klasterlarning salohiyatli ishtirokchilarining o'zaro hamkorlik qilish darajasi aniqlanadi.

Agrosanoat klasterida innovatsion xizmatlar infratuzilmasini shakllantirishning quyidagi bosqichlari taklif etiladi:

- a) birinchi bosqich mintaqada agrosanoat klasterini innovatsion xizmatlar infratuzilmasini shakllantirishga uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishni ko'zda tutadi;
- b) ikkinchi bosqich mavjud sharoitlarni va klasterlarni raqobatbardoshlik salohiyatini va uni innovatsion xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini aniqlash maqsadida tadqiqotlar olib borishni ko'zda tutadi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:
 - klaster chegarasini belgilash;
 - klaster ichida uning rivojlanishini, shu jumladan innovatsion xizmatlar infratuzilmasi subyektlari (moliya, ilmiy va kadrlar ta'minoti, marketing-logistika va b.) aloqalarni aniqlash;
 - strategik SWOT — tahlil o'tkazish, uning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi;
- d) uchinchi bosqich yagona klaster modelini shakllantirish, klasterlarning samarali shakllanishini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar, shu jumladan, innovatsion xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqilishini ko'zda tutadi. Ushbu bosqichda quyidagilarni amalga oshirish zarur:
 - mintaqada agrosanoat klasteri ishtirokchilarining qo'shma faoliyati miqyosini aniqlash;
 - klasterlarning innovatsion xizmatlar infratuzilmasini vazifalarini belgilash;
 - klasterlarni rivojlantirishda, uning asosini tashkil qiluvchi qishloq ho'jaligini, rivojlantirishning ssenariylar yondashuvi asosida o'rta va uzoq muddatga mo'ljallangan istiqbollarni ishlab chiqish;
 - innovatsion infratuzilmani rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini amalga oshirishning me'yoriy-huquqiy va tashkiliy-xo'jalik mexanizmlari yaratilishini ko'zda tutuvchi klasterlarni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish.
- e) to'rtinchi bosqich klasterlarni qisqa va o'rta muddatli rivojlantirish ssenariysi, shu jumladan, innovatsion xizmatlar infratuzilmasi yo'nalishlari bilan o'zaro bog'liqlikni hisobga olgan holda klaster sinergetik samaradorligini baholashni ko'zda tutadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Mamlakatda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlan-tirishning o'rta va uzoq muddatli prognozi sse-nariy yondashuv asosida ishlab chiqilgan.
2. Mamlakatda agrosanoat kompleksida innovatsion xizmatlarning infratuzilmasini rivojlantirish uchun institutsional muhitni rivojlantirishning strategik yo'nalishlari belgilandi, jumladan: texnologiyalarni sotish (transfer) sohasida xizmatlarni amalga oshirish, innovatsion faoliyatni axborot va tahliliy qo'llab-quvvat-lash samara-dorligini oshirish xamda oliy va kasb-hunar ta'limi tizimini moder-nizatsiya qilish doirasida ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish.
3. Mamlakatda agrosanoat ishlab chiqarishini innovatsion moder-nizatsiyalashning institutsional mexa-nizmini rivojlantirish quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi: raqobatbardosh tadqiqot sohasini yaratish; autsorsing vositalarini qo'llash orqali tijoratlashtirish institutlarini rivojlantirish (diffusion of innovation – innovatsiyalarni joriy etish jarayoni samaradorligini oshirishga ko'maklashadi).
4. Paxta-to'qimachilik klasterida innovatsion infratuzilma faoliyati natijasida tranzaksiyon xarajatlarni kamaytirish sinergiya ta'siri va klaster sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro aloqani integratsiyalashganligi tufayli amalga oshiriladi.

Shunday qilib, eng muhimi mamlakatni klasterli rivojlantirishning salohiyatini baholash bilan cheklanib qolmay, balki uning institutsional asoslarini va o'zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish mexa-nizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Портер М. Международная конкуренция: /Пер. с англ. / Под ред. и с предисловием В.Д. Щетинина. – М.: Междунар. отношения, 2005. – 859 с.
2. Leamer E.E. Sources of International Comparative Advantage: Theory and Evidence / Cambridge. – MIT Press, 1984.
3. Tolenado J.A. Propjs des Filires Industrielles. - Revue d'Economie Industrielle. - V. 6. - 1978. - № 4. - P. 149-158; Soulie D. Filieres de Production et Integration Vertical. – Annales des Mines, Janvier 1989. – P. 21-28.
4. Dahmen E. Entrepreneurial Activity and the Development of Swedish Industry, 1919-1939. - Stockholm, 1950; Mattsson L.G. Management of Strategic Change in a "Markets-as-Networks" Perspective. In the Management of Strategic Change/ Ed. by Fndrew M. Pettigrew. – Oxford, N. Y., 1987.
5. Feldman V.P., Audretsch D.B. Innovation in Cities: Science based Diversity, Specialization and Localized Competi-tion-European Economic Review. – 1999. – № 43. – P. 409-429.
6. Enright M.J. Survey on the Characterisation of Regional Clusters: Initial Results. Working Paper, Institute of Economic Policy and Business Strategy. University of Hong Kong, 2000, – 21 p.
7. B.O.Dusmatov "Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrosanoat ishlab chiqarish korxonalarida innovat-sion infratuzilmani rivojlantirish" mavzusidagi dissertatsiya ishidan 2021-y. 118 b.
8. B.O.Dusmatov "Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrosanoat ishlab chiqarish korxonalarida innovat-sion infratuzilmani rivojlantirish" mavzusidagi dissertatsiya ishidan 2021-y. 119 b.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.